

DARS JARAYONIDA O‘QUVCHILARGA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA MANG‘ITLAR DAVRIDA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTNI YORITISH

Bo‘rixonova Mahfuza Abdiali qizi

Termiz davlat pedagogika instituti 4- bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20588314>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada umumta’lim maktablarida O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish asosida Mang‘itlar sulolasi davridagi Buxoro amirligining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yoritish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda Mang‘itlar davrida qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik, savdo-sotiq, yer egaligi munosabatlari va aholining ijtimoiy tarkibi haqidagi tarixiy ma’lumotlarni o‘quvchilarga samarali yetkazish usullari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, interfaol metodlar, muammoli ta’lim, klaster, loyiha metodi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali tarix darslarining samaradorligini oshirish imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari tarix ta’limida zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo‘llash o‘quvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va tahliliy ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

KALIT SO‘ZLAR: Mang‘itlar sulolasi, Buxoro amirligi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, tarix ta’limi, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, loyiha usuli, qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik, savdo munosabatlari, tarixiy tafakkur, ta’lim samaradorligi.

KIRISH

Muhammad Rahimxon, Amir Shohmurod davrida Buxoro amirligida yetarlicha o‘zgarishlar bo‘ldi, ta’limda ham huddi shu kabi o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘zgarishlar bo‘lib o‘tdi. Buxoro amirligining dehqonchiligiga to‘xtalib o‘tsak, sun‘iy sug‘orishga asoslangan va daryo, to‘g‘on, suv ayriq‘ichlaridan foydalangan. Mang‘itlar davrida dehqonchilik uchun Amudaryo va Zarafshon daryolaridan sug‘orma dehqonchilik uchun foydalangan. Dehqonchilikda oddiy mehnat qurollaridan foydalangan ular nihoyatda sodda edi. Oddiy dehqon uchun omoch asosiy dehqonchilik quroli edi. Ot, ho‘kiz, sigir, tuya, eshak dehqonning suyanchig‘i hisoblangan. Yaxshiyamki, O‘zbekiston tuprog‘i hosildor, iqlimi qulay mamlakatdir. Shu ikki muhim omil ham oddiy ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ancha serhosil va unumdor dehqonchilikni yo‘lga qo‘yish imkonini berar edi. Amirlik yerlarida paxta, bug‘doy, jo‘xori, tariq, arpa, beda yetishtirish dehqonchilikning asosini tashkil etardi. Deyarli har bir dehqon xo‘jaligida o‘z ehtiyoji va sotish uchun paxta yetishtirilardi. Ipakchilik ham rivoj topgan edi. Bog‘dorchilik, sabzavotchilik va polizchilik keng rivojlangan. Piyoz, sabzi, bodring, qovoq, qovun, tarvuz, olma, olxo‘ri, o‘rik, shafloli, nok, yong‘oq, bodom, anjir, uzum yetishtirilardi. Buxoro amirligi o‘zining qovun va uzumi bilan mashhur edi. Ayni paytda, bog‘dorchilik ham yaxshi rivojlangan. Hatto ko‘pgina shaharlarni bog‘lar o‘rab turardi. 4 qismdan iborat alohida reja asosida bunyod etilgan bog‘lar ham bo‘lardi. Bog‘ qismlarining har birini ariqlar ajratib turgan. Buxoro, Qarshi, Samarqand kabi shaharlarda hunarmandchilik rivojlangan va turli xil ko‘rinishda barg yoza boshlagan. “ Buxoroning yetti kivshar hunarmandlari bir daqiqa ham qolmay o‘z ishlari bilan shug‘ullanar edi va har biri o‘zining hunarmandchilik ishlarini noziklik bilan ishlardi hamda ular o‘shida juda ham chaqqon edilar” deya o‘zining asarida yozib o‘tgan Hofiz Tanisha al- Buxoriy. Hunarmandlar o‘sha davrda hatto shahar mudofaasi uchun ham o‘z hissasini qo‘shganligi ham buning yorqin isbotidir. Abdullanoma asarida hatto hunarmand Ruhiy qurgan 3 nafar qozon shaharning 3 chekkasiga qo‘yilganligi

ma'lum. Buxoro amirligi aholisining ko'pchiligi ko'chmanchi chorvador aholi edi va bu aholi keyinchalik hunarmandchilik bilan shug'ullana boshladi hamda shu bilan bir qatorda dehqonchilik ya'ni sug'orma dehqonchilik ham rivojlanib bordi, aholi orasida ko'plab hunarmandlar ham yetishib chiqdi hamda aholi uchun ko'plab qulay imkoniyatlar ham yaratila boshladi. Buxoro amirligi iqtisodiy hayotida hunarmandchilik va savdo- sotiq o'z o'rniga ega bo'la boshlagan, amirlikdagi ichki nizolarga qaramay bu sohalarning o'zni o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Shu bilan birga dehqonchilik ham sug'orma dehqonchilik bilan bevosita bog'liq edi. Asosiy sug'orish tarmoqlari Amudaryo va Zarafshon daryo hisoblangan, aholining ekinlarini sug'orishda ham asosan shundan foydalanganini o'sha davr voqealari bilan birgalikda ko'rib o'tishimiz mumkin. Dehqonchilikda asosan g'alla, paxta ekilgan. Ipakchilik asosan Zarafshonda bo'lgan, Buxoro amirligining zargarlik buyumlarini ham xaridori ko'p bo'lgan. Xususan, tikuvchilik, dehqonchilik, zargarlik, misgarlik buyumlari xaridori ko'p bo'lganini ko'rish mumkin. O'sha davr aholisini hunarmandchilik bilan rostakamiga shug'ullanini ko'rish ko'rish mumkin. Zargarlik ham keng taraqqiy etganligi va Buxoro amirligida bu sohalarning keng taraqqiy etganligi amirlikning rivojlanganligidan dalolat beradi va dehqonchilik va chorvachiligi ham rivojlanganligi haqda ma'lumotlar bu haqida ma'lumotlar beradi. Muhammad Rahimxon va Amir Shohmurod davrida bu sohalarning rivojlanganini ham hamda savdo- sotiqning rivoji, hunarmandchilikning turli xil sohalarni taraqqiy etganini ko'rishimiz mumkin. Amirlikning yer egligi masalalariga to'xtalib o'tar ekanmiz, bu davrda xususiy yerlar, jamoa yerlari, amlok yerlari, vaqf yerlarini ko'rishimiz mumkindir. Bu yer egaligi shakllari turli hududlarda turlicha shaklda atalgan bo'lsa, amirlikda esa bu yerlar aholi uchun zaruriyati uchun xizmat qilganligini ko'rish mumkindir.

Davlat yer shakllari:

Jamoa yerlari- suvsiz dasht, to'qayzorlar bo'lib, ko'chmanchilarga berilgan hamda ular davlatga xiroj solig'ini to'lagan.

Tanho yerlar- xizmatlari uchun berilgan yer shakli hisoblanadi.

Ijara yerlar- Dehqonlarga ijaraga berilgan bo'lib, asosan xazinaga soliqlar shu yerlardan kelgan

Suyurg'ol yer- hukmron sulola vakillari, yirik mansabdorlarga beriladigan yer hamda ular yirik lashkarboshilarga berilgan.

Vaqf yerlar- Masjid va madarasalar uchun ajratilgan yerlar hisoblangan.

Yerlar amirlikning yerlari hisoblanada aholi foydalanishi uchun ham bir nechta guruhlarga ajratilganligi bilan ajralib turgan va aholi bu yerlardan o'z manfaati yo'lida emas asosan ular kun kechirishi va aholining savdo- sotiq qilishi uchun foydalanilgan, shunday ekan aholining bu mazmunda harakatlari amirlik uchun ham juda foydali hisoblanganini ko'rsatib o'tadi. Yerlar asosan aholini turmush tarsi uchun xizmat qilganini ko'rishimiz lozimligi hamda aholi bu yerdan unumli foydalangan yerlar aholini shaxsiy manfaatlari uchungina emas, amirlik manfaatlari yo'lida foydalanilgani bezijga emas. Muhammad Rahimbiy davri amirlikda iqtisodiyot va ijtimoiy - siyosiy hayot rivojlangan davr hisoblanadi va ijtimoiy hayot ham gullab yashnagan davr hisoblanadi. Doniyolbiy davriga to'xtalib o'tar ekanmiz, bu amir davrida biroz ichki nizolar va qo'zg'olonlar avj olgan davrdir. Bu amir ham yoshlari ulug' edi. Doniyolbiydan so'ng taxtga uning o'g'li Amir Shohmurod egalladi va uning davri amirlikning eng gullagan davri edi. Iqtisodiy, siyosiy hayot ham gullab yashnagan, ta'lim - tarbiya sohasi ham boshqa soliq tizimi ham barqaror holatda rivojlangan davr edi. Amir Haydar va Amir Nasrullo davri ham yaxshi davr ammo aholini biroz qiynalgan davri hisoblanganligiga tarix guvohdir. Buxoro shahri ham bu amirlar davrida ham yuksaldi ham halokatli holatga kelib qoldi. Amirlikda iqtisodiy hamda ijtimoiy sohalar emas balki,

ichki va tashqi savdolar ham bir muncha taraqqiy etgan va ko'plab chet el mutaxassislari tomonidan e'tirof rtilgan. Shu bilan birga savdo aloqalari ham rivojlanganligiga tarix guvohdir Buxoro amirli Eron, Afg'oniston, Hindiston, Fors hududidagi davlatlar bilan savdo aloqalarini olib brogan va bu davlatlar bilan ham strategik tomonlama yaqinligi bilan ajralib turgan. Buxoro amirligi hududi unumdor va sersuvligi bilan ajralib turganligi ham bejizga emasdir. Aleksandr Byorns faoliyatida Buxoro bozori alohida o'rin tutgan. U ingliz imperiyasining yoyilish siyosatining aniq namoyandasi bo'lib, Britaniya doimiy ravishda o'z sanoat mahsulotlari uchun yangi bozorlar qidirar edi. Buxoro, o'zining Rossiya bilan mustahkam iqtisodiy hamkorligi tufayli, Angliya uchun muhim strategik ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki inglizlar har qanday yo'l bilan ruslarning mintaqaviy savdoda ustunlik qilishiga to'sqinlik qilishni maqsad qilgan edi. A.Byornsning ta'kidlashicha, Buxoroda savdo-sotiq jarayonlari rivojlanishning yuqori bosqichiga chiqqan bo'lib, davlat bu sohaning taraqqiyotiga har jihatdan ko'maklashgan. Amir Shohmurod mang'itlar sulolasi vakillari orasida birinchi bo'lib yangi pul sistemasiga asos soldi, u 1785-1800-yillar davomida to'la qimmatga ega bo'lgan "ashrafi" yoki tillo deb nomlangan oltin tanga, kumush va mis pullarni zarb qildi. Bu an'ana butun Buxoro amirligi hukmronlik qilgan davrdan boshlab, Buxoroda tanga pullarni zarb qilish to'xtatilgan 1904-1905 yillargacha davom etdi. 1785-yilga qadar Buxoro davlatida ashtarxoniylar zarb etgan tarkibida aralashmasi ko'p va sof bo'lmagan kumush tangalar muomilada bo'lib kelgan. Mazkur tangalarning ko'rinishi to'la yumaloq bo'lmagan shaklda va tangananing faqat markaziy qismidagi yozuvlarga qisman o'qilishi mumkin bo'lgan. Amir Shohmurod zarb ettirgan tangalar vazni, yuza o'lchovi, probasi, zarb etish texnikasi, unda qayd etilgan yozuvlari bilan oldingi eski tangalardan keskin farq qilgan. Amir Shohmurodning dastlabki tangalari sof kumushdan bo'lgan, 1787-yildan sof oltin tangalar zarb etilib, muomilaga kiritilgan, faqatgina hukmronligining so'nggi yillarida misdan tangalar zarb ettirgan. Amir Shohmurod davrida zarb etilgan bitta tangananing og'irligi 7/10 misqolni ya'ni 3,36 grammni, yuza o'lchami 9/10 dyum ya'ni 25,4 smni tashkil etgan. Buxoro amirligida oltin tangalar "tillo" yoki "ashrafi", kumush tangalar "tanga", mis tangalar esa "fulus" yoki "pul" deb atalgan, 1 tillo 22 tangaga, 1 tanga 50 pulga teng bo'lgan.

Tarix haqida to'xtalib o'tar ekanmiz bu fan asosan qadimgi o'tmishdagi voqealar va ularning tasnifini o'rganuvchi fan hisoblanadi. O'quvchilarga mang'itlar davrini yoritishda zamonaviy pedagogic texnologiyalardan foydalangan holda yoritish hamda bu davrga oid adabiyotlar bilan bo'lishish maqsadga muvofiqdir. Mang'itlar davri hayotini tavsif etishda FISMU, T- JADVALI VA Keys- stadi metodlaridan foydalangan holda dars jarayonda yuqori atmosferali jarayoni tashkil etish va dars jarayonini yanada qiziqarli tashkil etish maqsadlaridan biri bo'lishi kerak o'qituvchining darsda farqli metodlardan foydalanish orqali o'quvchida tarix darsiga bo'lgan qiziqish va ularning iste'dodini oshirish darsdan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri sifatida qaraladi. Hozirgi vaqtda o'quvchilarni zamonaiy ruhda tarbiyalash va dars jarayonlariga jalb eta olish har bir pedagogik kadrning asosiy maqsad va vazifalaridan biri sanaladi va hamda o'quvchida Vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usi ham shakllana boshlaydi o'zi asosiy maqsad ham shundan iboratligi bunga yaqqol misoldir. Tarix darslarida bugungi kun talablaridan kelib chiqqan innovatsion va dolzarb yondashuvlarni tadbiiq etish maqsadga muvofiqdir. Darsda mumkin bo'lgan yondashuvlar:

- shaxsga yo'naltirilgan;
- faoliyat;
- tizim;
- innovatsion va ijodiy.

Bo'lajak pedagog shu yo'nalishlarga murojaat etgan holda aynan mavzuning bir tomonini ko'proq yoritib berishga e'tibor qaratadi. Jamoa bilan ishlash metodlari: Kichik guruhlarda fikr almashish, darsda jamoa bo'lib fikrlashga undash hamda munozara qilish va umumiy yechim topish ko'nikmasini rivojlantiradi. Ijodiy tafakkurni va san'atni rivojlantiruvchi metodlar: Noan'anaviy fikrlash va muammolarni ijodiy hal etishga yo'naltirilgan. O'yin metodlari: Didaktik o'yinlar orqali o'quvchining qiziqishini oshirish va mustaqil qaror qabul qilishini qo'llab-quvvatlaydi. O'quvchilarning mustaqil fikrlashni shakllantiruvchi asosiy interfaol metodlar

Aqliy hujum (Brainstorming): Muammo bo'yicha o'quvchilarning barcha g'oyalarini yig'ish, ularni tanqid qilmasdan, eng to'g'risini tanlab olish orqali kreativlikni oshiradi.

Klaster (Tarmoqlar) metodi: Mavzuni tushunish, g'oyalarni tizimlashtirish va ular o'rtasidagi bog'liqlikni mustaqil tahlil qilish imkonini beradi.

Muammoli ta'lim metodi: O'quvchilar oldiga savol yoki muammoli vaziyat qo'yilib, uning yechimini mustaqil izlashlari talab etiladi.

Sinkveyn (Besh qatorli she'r): Mavzu bo'yicha tushunchalarni ixchamlashtirish va asosiy g'oyani mustaqil shakllantirish ko'nikmasini o'stiradi.

Keys-stadi (Case study): Aniq bir vaziyat (keys) tahlil qilinib, muammoning sabablari va yechimlari muhokama qilinadi.

BBB (Bilar edim, Bilib oldim, Bilmoqchiman) jadvali: O'quvchining o'z bilimlarini mustaqil baholash va tahlil qilishiga yordam beradi.

Rollar o'yini yoki "Sahnalashtirish": O'quvchilar muayyan rolga kirib, vaziyatga mustaqil yondashuvini ko'rsatib beradi. Bugungi kunda va jamiyatimizda interfaol metodlarning ahamiyati kattadir, O'quvchilar passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanadi, shaxsiy salohiyat va tanqidiy yondashuv rivojlanadi, o'z fikrini erkin va asosli bayon etish ko'nikmasi shakllanadi, ijodiy va nodatiy fikrlash (kreativlik) rag'batlantiriladi. Davriy javob mashqi muhokamada ishtirok etishni demokratlashtirish, uzluksizlikni targ'ib qilish va odamlarga hurmat bilan tinglash uchun zarur bo'lgan kuchni tajriba bilan ta'minlash usulidir. Amaliyotda qo'llanilishi O'zbekiston ta'lim tizimida interfaol metodlar keng joriy qilinmoqda. Masalan, "Aqliy hujum", "Baliq skeleti", "Klaster" kabi metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini faollashtiradi. Raximova N. Tomonidan olib borilgan tadqiqotda interfaol metodlardan foydalanilgan sinflarda o'quvchilarning fikrlash darajasi an'anaviy usullarga nisbatan 27% yuqori bo'lgani aniqlangan. Interfaol metodlar qo'llanilgan va qo'llanilmagan sinflarda mustaqil fikrlash ko'rsatkichlari (eksperimental tadqiqot asosida) Sinf turi Mustaqil fikrlashga oid topshiriqlarni bajarish darajasi (%) Fikrni dalillash ko'nikmasi (%) Ijodiy yechimlar taklifi (%) Interfaol metodlar qo'llangan 82% 75% 68% an'anaviy metodlar qo'llangan.

Shundan ko'rinib turibdiki, interfaol metodlar qo'llangan sinflarda o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'rsatkichlari ancha yuqori.

XULOSA

Mang'itlar sulolasi hukmronligi davrida Buxoro amirligi iqtisodiy hayotida dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo munosabatlari muhim o'rin egallagan. Yer egaligi tizimi, soliq siyosati va jamiyatning ijtimoiy tuzilishi ushbu davrning asosiy xususiyatlarini belgilab bergan. Mazkur tarixiy jarayonlarni o'quvchilarga o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya vositalari yordamida o'quvchilar tarixiy voqea-hodisalarni chuqurroq anglaydi, ularni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Shuningdek,

yangi pedagogik yondashuvlar tarix faniga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirib, o‘quvchilarda milliy tarix va madaniy merosga nisbatan hurmat tuyg‘usini shakllantiradi. Shu bois Mang‘itlar davri ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o‘qitishda zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini keng qo‘llash tarix ta‘limi sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Nazirov Baxtiyor Safarovich, Yaqubova Dilorom Tadjiyevna, O‘zbekistonda yer-suv munosabatlari tarixi (qadimgi davrdan hozirgi kungacha). Darslik – “Bekshox print servis” nashriyoti. – Termiz: 2023. – 235-bet.
2. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома («Шарафномаи шоҳий»). Биринчи китоб; Форс тилидан С.Мирзаев тарж.; Сўз боши ва изоҳлар муаллифи: Б. Аҳмедов.—Т.: «Шарк», 1999.-293 б.
3. Шодиев Ж.М. Бухоро амирлигида давлатчилик масалалари: Олий ўқув юрти талабалари учун ўқув қўлланма/ Масъул муҳаррир: Ҳ.Б.Бобоев. Т.: Тошкент Давлат юридик институти, 2005.-19- б
4. Халфин Н.А., Раппсадина Е.Ф. Николай Ханьков –востоковед и дипломат. – Москва:Наука, 1977. 278 с.
5. Shamsutdinov R. “Vatan tarixi” 2-jild, T.; “Sharq” 2012 y. 233-235 b
6. Ya. X.G‘afforov. Tarix O‘qitish Metodikasi.Toshkent. Turon-Iqbol-2022. 211-bet.
7. Interactive Methods of Teaching the Uzbek Language / Nodirakhon Rakhimova — Web of Teachers: Inderscience Research, Vol. 1, No. 2, 2023, bet 6-9.
8. The Role and Importance of Using Interactive Methods / — Scientists UZ, 2023, bet ... (ma‘lumotlar interfaol metodlar va mustaqil fikrlash haqida) scientists.uz